



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Statistika va tadqiqotlar departamenti
J. Mamasalayev

**Kredit xatarlarini kamaytirishda qo'llaniladigan
makroprudensial choralar: davlatlar tajribasi va
O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari**

Toshkent 2025

**Kredit xatarlarini kamaytirishda qo'llaniladigan
makroprudensial choralar: davlatlar tajribasi va
O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari**

Statistika va tadqiqotlar departamenti tomonidan tayyorlandi.
O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:
E-mail: j.mamasalaev@cbu.uz

Kredit xatarlarini kamaytirishda qo'llaniladigan makroprudensial choralar: davlatlar tajribasi va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Bank-moliya sohasida raqamli texnologiyalar va boshqa innovatsion imkoniyatlarning yaratilishi aholining yangi va tezkor kredit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirsada, bu jarayonning ayrim salbiy jihatlari ham kuzatilmoqda.

Xususan, onlayn platforma orqali qarz olish jarayonining soddalashgani qarz oluvchilarning moliyaviy majburiyatlarini to'liq his qilmasdan yoki o'z **daromad imkoniyatlarini chuqur hisoblamasdan** qarz olish holatlarini kuchaytirmoqda. Natijada, bir vaqtning o'zida bir nechta bank ilovalari orqali kredit rasmiylashtirish holatlari ko'payib, aholida ortiqcha qarzдорlik va **kredit mas'uliyatsizligi xavfi** ortadi.

Bunday sharoitda **kredit shartlarining o'z vaqtida qat'iylashtirilmasligi** yoki zarur **makroprudensial vositalarning** reguliator tomonidan joriy etilmasligi, bir tomondan uy xo'jaliklarining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan bank tizimining kredit portfeli sifatiga va umumiy moliyaviy barqarorlikka xavf soladi.

Misol uchun, 2007-2008-yillarda global moliyaviy inqiroz yuzaga kelishi nafaqat banklarning biznes modellari o'zgarishi, moliyaviy innovatsiyalarining (*ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar va derivativlar*) rivojlanishi sharoitida kredit xatarlarini yetarlicha baholamasdan uy-joy segmentiga katta miqdorda resurslar yo'naltirilishi, balki reguliatorlar tomonidan kredit shartlarining o'z vaqtida qat'iylashtirilmaganligi bilan ham uzviy bog'liq bo'lgan¹.

Kredit berishda ortiqcha xatarlarni oldini olish va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlash maqsadida bugungi kunda xalqaro amaliyotda **qarz oluvchilarga qaratilgan talablarni** (*Borrower-based measures – BBMs*) qo'llash makroprudensial chora sifatida keng foydalanib kelinmoqda.

Bunday vositalar sifatida **kreditning daromadga nisbati** (*Loan-to-income – LTI*), **qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati ko'rsatkichi** (*Debt service-to-income – DSTI*), **kreditning garovga nisbati** (*Loan-to-value – LTV*) va **qarzning daromadga nisbati** (*Debt-to-income – DTI*) bo'yicha cheklovlarni sanab o'tish mumkin.

¹ Francesco G. Caloia, (2024). Borrower-based measures, house prices and household debt. *Journal of International Money and Finance*. vol.143. p.1.

Mazkur vositalarning qo'llanilishidan ko'zlangan asosiy maqsad – qarzdorlar va kreditorlarni moliyaviy va iqtisodiy shoklarga nisbatan yo'qotishlarini kamaytirish hamda tizimli xatarlarni yumshatish hisoblanadi.

I. Qarz oluvchilarga qaratilgan makroprudensial choralar bo'yicha mamlakatlar tajribasi

Irlandiya Markaziy banki tomonidan 2015-yilda ipoteka kreditlari bo'yicha LTI ko'rsatkichi birinchi marta uy sotib olayotganlar uchun **3,5 barobardan**, ikkinchi marta uchun esa **4 barobardan** ortiq bo'lmasligi hamda **kredit summasining ta'minotga nisbati (LTV) 90 foizdan oshmasligi** belgilandi.

Mazkur kiritilgan talab aholi qarzdorligining ortiqcha o'sishini oldini olish, uy-joy narxlarining keskin o'sishini cheklash va moliya sektoridagi tizimli xatarlarni kamaytirish maqsadida amalga oshirilgani ta'kidlangan.

Tijorat banklariga ushbu talabdan yuqori kreditlar berish uchun ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratib berilgan. Bunda, birinchi va ikkinchi marta uy-joy xarid qilayotgan mijozlar kreditlarining 15 foizi, *“buy to let” (ijaraga berish maqsadida sotib olingan uy-joylar)* kreditlari bo'yicha esa 10 foizi 3,5 barobarlik me'yoriy chegaradan yuqoriroq bo'lishi mumkinligi belgilangan.

LTI va LTV cheklovlarining qarz oluvchilar xulq-atvoriga ta'siri sezilarli darajada farq qiladi. LTI bilan cheklangan qarz oluvchilar (*odatda yosh va daromadlari past aholi*) qimmat uy-joy xarididan voz kechishga majbur bo'lgan bo'lsa, LTV bilan cheklangan (*moliyaviy jihatdan barqaror*) qarz oluvchilar uy-joy qiymatini saqlab qolib, boshlang'ich badalni amalga oshirgan. Boshqacha aytganda, LTI cheklovi uy-joy bozorida narxlarni pasaytirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilsa, LTV asosan defolt holatida banklarning ehtimoliy zararlarini va kredit oluvchilarning mas'uliyatsizlik xatarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, LTI joriy etilgunga qadar katta miqdorda kredit olish imkoniga ega bo'lgan aholi ulushi yuqori bo'lgan hududlarda uy-joy narxlarining o'sish sur'ati va *“narx/ijara” (price-to-rent)* ko'rsatkichi sezilarli darajada pasaygan. Ayrim hududlarda ushbu ko'rsatkich 21 foizgacha pasaygan. Bu shuni anglatadiki, LTI nafaqat aholining qarz yukini kamaytirishda, balki makroiqtisodiy darajada narx nomutanosibliklarni oldini olishda ham samarali ekanini ko'rsatadi.

LTI bozordagi talab va narxlar dinamikasiga fundamental jihatdan kuchliroq ta'sir ko'rsatishini va bozorning qizib ketishni oldini olishda samarador vosita ekanligini ko'rsatdi.

LTI talabi nafaqat qarz oluvchilar barqarorligini oshirishda, balki tizimli xatarlarni kamaytirish va narx pufaklarining oldini olishda ham samarali ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ular ayniqsa uy-joy narxlari aholi daromadlari o'sishidan tezroq o'sib borayotgan sharoitda uy-joyning ommabopligini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Kanadada uy-joy narxlarining keskin o'sishi va qarz yukining eng yuqori darajaga chiqib borayotgani sababli 2025-yilning I choragida LTI talabi joriy etilgan. Moliya institutlari bo'yicha federal nazorat idorasi tomonidan belgilangan talabga ko'ra, LTI faqat yangi ipoteka kreditlariga nisbatan amal qiladi va mavjud kreditlar yoki yangilanayotgan shartnomalarga tatbiq etilmaydi. Bunda, ipoteka kreditining talabgor yillik daromadiga nisbati **4,5** barobardan oshmasligi belgilangan.

Kanadada LTI bo'yicha ayrim istisnolar ham mavjud. Xususan, ko'chmas mulk narxlari juda yuqori bo'lgan Toronto va Vankuver kabi yirik shaharlarda ba'zi iste'molchilarga yuqori LTI kreditlari berilishi mumkin. Biroq, bu holatda har bir bank uchun berilishi mumkin bo'lgan yuqori LTIga ega kreditlar soni bo'yicha choraklik limitlar belgilangan. Bundan tashqari, boshlang'ich badali 20 foizdan ko'p bo'lgan va sug'urtalangan ipoteka kreditlariga LTI cheklovi qo'llanilmaydi.

Fransiyada aholi qarzдорligining ortib borayotgani sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida Moliyaviy barqarorlik bo'yicha Oliy Kengash tomonidan LTI talabi 2020-yil 1-yanvardan boshlab amaliyotga joriy etilgan (2019-yildagi hisob-kitoblarga ko'ra, Fransiyada o'rtacha LTI darajasi **5,2** ni, ilk marta uy-joy xarid qiluvchilar uchun esa **5,6** ni tashkil etgan).

Fransiyada LTI talabi DSTI cheklovi bilan birgalikda qo'llaniladi. DSTI ning 33 foizdan oshmasligi asosiy cheklov sifatida qo'llanilsa, DSTI ning ushbu chegaradan oshgan holatlarida LTI ko'rsatkichining 7 barobardan oshmasligi qo'shimcha talab sifatida belgilangan. Shuningdek, yangi ajratilgan kreditlarning 15 foizigacha bo'lgan qismi ushbu cheklovlardan istisno etilishi mumkin. Biroq, ularning 75 foizi birinchi marta turar-joy xarid qilish maqsadlari uchun ajratilishi lozim.

Belgiya Milliy banki tomonidan LTI ko'rsatkichi 2020-yilda monitoring qilish maqsadida joriy etilgan bo'lib, 2021-yildan boshlab barcha tijorat banklari uchun majburiy hisobot shaklida qo'llanilmoqda. Ushbu mamlakatda LTI normativ cheklov emas, balki moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Uning joriy etilishiga aholi qarzдорligining ortishi, ipoteka kreditlarining ko'payishi va ko'chmas mulk bozorida risklarning oshishi sabab bo'lgan.

Ushbu ko'rsatkich Belgiyada yashash uchun olinadigan ipoteka kreditlari hamda "buy to let" (ijaraga berish maqsadida sotib olingan uy-joylar) kreditlariga nisbatan qo'llaniladi. Banklar har bir ajratilayotgan kredit uchun LTI bilan birgalikda DTI, DSTI va LSTI ko'rsatkichlarini ham hisoblab Belgiya Milliy bankiga hisobot beradi. Rasmiy chegaraviy me'yor belgilanmagan bo'lsada, kredit portfelida yuqori LTI ga ega kreditlar ulushi ortgan banklar uchun regulyator tomonidan individual choralar qo'llaniladi.

Slovakiyada DTI talabi 2014-yildan boshlab amalda bo'lib, u ipoteka kreditlari bo'yicha risklarni kamaytirish va aholi qarzdorligini barqarorlashtirish maqsadida joriy etilgan. DTI bilan birga DSTI va LTV cheklovlari ham qo'llanilib, makroprudensial siyosatning asosiy vositalariga aylangan.

Slovakiyada DTI talabi asosan yangi ipoteka kreditlariga nisbatan qo'llaniladi va banklar bu ko'rsatkichni hisoblab, Slovakiya Markaziy bankiga hisobot topshiradi. Bunda, DTI ning maksimal chegarasi 8 barobardan oshmasligi lozim. Cheklovlar aholi moliyaviy barqarorligini ta'minlash va bank tizimidagi kredit tavakkalchiligini kamaytirish uchun zarur deb topilgan.

Dastlab, ushbu mexanizm tavsiyaviy tarzda boshlangan bo'lsada, keyinchalik majburiy nazorat shakliga o'zgartirilgan. 2015-yilda 90 foizdan yuqori LTV ga ega kreditlar 20 foizdan kam bo'lgan bo'lsa, 2016-yilda bu ulush 6,3 foizgacha tushgan. Bu esa DTI talabining joriy etilishi Slovakiya moliya sektorida tizimli xatarlarni kamaytirganini ko'rsatadi.

Angliya banki 2014-yilda ipoteka kreditlariga LTI cheklovini ($LTI \leq 4,5$) joriy qilgan. Mazkur chora aholi qarzdorligining ortiqcha o'sishini to'xtatish hamda uy-joy narxлари keskin o'sishi sharoitida moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan edi.

LTI cheklovi joriy etilishining asosiy sababi $LTI \geq 4,5$ bo'lgan yuqori xatarli ipoteka kreditlari ulushining ortishi bo'lgan. Bu tendensiya moliyaviy likvidlikning yuqori darajasi, past foiz stavkalari va uy-joy bozorida taklif yetishmovchiligi sharoitida kuzatilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, tijorat banklari regulyatorga maxsus ariza bilan murojaat qilish orqali mijoz yillik daromadining 4,5 barobaridan yuqori bo'lgan kreditlarni ajratishi mumkin. Biroq, 4,5 dan yuqori LTI ga ega kreditlarning banklar tomonidan 1 yil davomida ajratilgan yangi kreditlardagi ulushi 15 foizdan oshmasligi zarur.

Shuningdek, Angliya banki tomonidan LTI bilan birgalikda DSTI cheklovi ham qo'llanilib kelingan. Biroq, 2022-yilda amalga oshirilgan stress-test natijalari ipoteka krediti bo'yicha foiz stavka 3 foiz bandga oshirilganda qarz

yukini pasaytirishda asosiy samarani aynan LTI talabi berayotgani sababli DSTI talabi ortiqcha deb topilib, bekor qilingan.

1-jadval: LTI va DTI talablari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi

№	Davlatlar nomi	Joriy etilgan sana	Joriy etish mexanizmi
1	Irlandiya	2015-yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 3,5$ va $LTV \leq 90\%$
2	Kanada	2025-yil I choragi	Yangi ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 4,5$. Sug'urtalangan ipoteka kreditlari bo'yicha istisnolar mavjud.
3	Fransiya	2020-yil	Ipoteka kreditlari uchun asosiy cheklov $DSTI \leq 33\%$. Yangi ajratilgan kreditlarning 15 foizigacha qismi ushbu ikki cheklovdan istisno qilinishi mumkin.
4	Belgiya	2021-yil	LTI ning me'yoriy chegarasi belgilanmagan. Ushbu ko'rsatkich bilan birgalikda DTI, DSTI va LSTI ko'rsatkichlari monitoring qilib boriladi. O'rtacha tortilgan LTI ko'rsatkichi oshib ketgan banklar uchun regulyator tomonidan individual choralar ko'riladi.
5	Slovakiya	2014-yil	Ipoteka kreditlari uchun $DTI \leq 8$. DTI bilan birgalikda DSTI va LTV cheklovlari ham qo'llaniladi.
6	Angliya	2014-yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 4,5$. Kredit portfelining 15 foizigacha yuqori LTI ga ega kreditlar ajratish mumkin.
7	Norvegiya	2017 yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 5.0$
8	Daniya	2017 yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 4.0$
9	Shvetsiya	2018 yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 4.5$
10	Yangi Zelandiya*	2024 yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 6.0$
11	Birlashgan Arab Amirliklari	2013-yil	Ipoteka kreditlari uchun $LTI \leq 8.0$
12	Quvayt	-	Iste'mol kreditlari uchun $LTI \leq 25$ (oylik daromadiga nisbatan)

Bundan tashqari, LTI cheklovi bo'yicha ssenariyli tahlillar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu cheklov bo'lmagan taqdirda 4,5 dan yuqori LTI ga ega ipoteka kreditlari ulushi 25 foizgacha yetishi prognoz qilingan. Hatto uy-joy narxlari mo'tadil o'sgan taqdirda ham 4,5 dan yuqori LTI ga ega ipoteka kreditlari ulushi 15 foizga yetishi ma'lum bo'lgan. LTI cheklovining joriy etilishi bunday kreditlar ulushini 10 foiz atrofida barqarorlashishiga hamda yuqori qarz yukiga ($DSTI \geq 40\%$) ega kreditorlar soni kamayishiga xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, LTI cheklovi uy-joyi birinchi marta sotib oluvchilar uchun ipotekadan foydalanish imkoniyatiga minimal ta'sir ko'rsatgan. Ushbu guruh uchun asosiy to'siq daromad emas, balki dastlabki to'lov (LTV cheklovi) darajasi bo'lgan. Angliya bankining 2021-yildagi tahliliga ko'ra, potensial mijozlarning 0,4 foizi LTI talabini bajara olmagan, 83 foizi boshlang'ich to'lovni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lmagan sababli kredit olishga murojaat eta olmagan.

Angliya banki o'tkazgan tahlilga ko'ra, LTI cheklovlarini joriy etish banklar va uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda ularning barqarorligini sezilarli darajada oshirgan. Agar shu maqsadda boshqa muqobil choralar — xususan, foiz siyosatini qat'iylashtirish yoki banklar uchun kapital talablarini oshirish — qo'llanilganida, ularning makroiqtisodiy oqibatlari salbiyroq bo'lishi prognoz qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Angliya tajribasi LTI talabining joriy etilishi ipoteka bozorini barqarorlashtirish, aholining ortiqcha qarzдорligining oldini olish va tizimda yirik shoklar yuzaga kelish riskini kamaytirishda samarali hamda nisbatan "yumshoq" chora ekanini ko'rsatdi².

II. Makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri

Iqtisodiy shoklar kuzatilgan sharoitda yuqori LTI ga ega uy xo'jaliklari mo'tadil qarzga ega uy xo'jaliklariga nisbatan iste'molni 3 barobar ko'proq qisqartiradi. Bu LTI cheklovining iste'mol kanali orqali uzoq muddatli retsessiya fazasini cheklash samaradorligini va uning makroiqtisodiy ahamiyati muhimligini izohlaydi³. Shuningdek, uy-joy bozori qizib ketishi sababli yuz beradigan retsessiya sharoitida faqat LTI talabini qo'llash orqali YAIMni 0,4–1,5 foiz birlikka oshirish mumkinligi ta'kidlandi⁴.

Yevropa Markaziy banki tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotga ko'ra, daromadga bog'langan choralar (LTI va DSTI) tizimli xatarlarni kamaytirishda eng samarali hisoblanadi. Hisob-kitoblar kredit siklining kengayishi (*potensial darajadan yuqori*) fazasida BBM qo'llanilmagan taqdirda qarz yuki (DSTI $\geq$ 40%) yuqori uy xo'jaliklari ulushi 3-7 foiz bandga o'sishi mumkinligini ko'rsatdi. BBM joriy etilganda esa yuqori qarz yukiga ega uy xo'jaliklari sonining o'sishi kuzatilmadi.

² Committee on the Global Financial System. (2023). Macroprudential policies to mitigate housing market risks: Country case study – United Kingdom (CGFS Papers No. 69). Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/publ/cgfs69.htm>

³ Bunn, P., Rostom, M. Household debt and spending in the United Kingdom, Staff Working Paper No. 554, 2015.

⁴ Bank of England. Financial Stability Report - December 2021

Ushbu munosabat ayniqsa, Gretsiya va Portugaliya kabi qarzдорlik darajasi yuqori va aholi ijtimoiy himoya tizimi yetarlicha rivojlanmagan davlatlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Germaniya va Niderlandiya kabi daromadlari barqaror va jamg'armalari yuqori mamlakatlarda esa nisbatan zaif bo'ldi.

Shuningdek, qisqa muddatda kreditlardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi sababli iste'mol o'rtacha 0,2–0,6 foizga pasayishi (*cheklovlar joriy etilgandan so'ng 1–2 yil mobaynida*) kuzatiladi. Biroq, uzoq muddatda uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi yaxshilanishi sababli iste'mol ko'rsatkichi tez sur'atlarda tiklanadi.

Ta'kidlash joizki, BBM choralari retsessiya paytida emas, balki iqtisodiy qizish fazasida joriy etilsa ko'proq samara ko'rsatadi. Bu xulosa makroprudensial siyosatning **“leaning against the wind”** tamoyilini tasdiqlaydi. Bunda, xatarlarni oldindan jilovlash, inqiroz ro'y bergandagi salbiy oqibatlarni bartaraf etishga urinishdan ko'ra samaraliroqdir.

Shu bilan birga, maqolada BBM ning ijtimoiy adolat va ehtimoliy yondosh oqibatlari masalasi ko'tarilgan. Daromadga nisbatan taqiqlovchi cheklovlar mohiyati universal bo'lsada, qarz oluvchilarning turli guruhlariga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotchilar BBM ni ijtimoiy va uy-joy siyosati bilan muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi – xususan, boshlang'ich to'lov uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari yoki arzon uy-joy dasturlarini rivojlantirish orqali.

Umuman olganda, Gaffney va Edward (2019) Irlandiyada ipoteka kreditlariga LTI cheklovlari joriy qilinishi uy xo'jaliklariga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, LTI ning 3,5 qilib belgilanishi natijasida 2018-yil davomida yangi ajratilgan ipoteka kreditlari **0,5%-1,1%** (*40-100 mln yevro*) ga kamaygan⁵.

Nymoen, Pedersen va Sjöberg (2019) tadqiqotlarida bir nechta rivojlangan iqtisodiyotlarda (*Avstraliya, Kanada, Daniya, Finlandiya, Irlandiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya*) makroprudensial choralarning ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, LTI joriy qilinishi uy xo'jaliklariga ajratilgan kreditlarning choraklik o'sishini **0,23** foizga qisqartirgan⁶.

⁵ Gaffney, Edward, 2019. Mortgage borrowers at the loan-to-income limit. *Financial Stability Notes* 11/FS/19, Central Bank of Ireland.

⁶ Nymoen, R., Pedersen, K., & Sjöberg, J. I. (2019). Estimation of Effects of Recent Macroprudential Policies in a Sample of Advanced Open Economies. *International Journal of Financial Studies*, 7(2), 23. <https://doi.org/10.3390/ijfs7020023>

III. Qarz oluvchilarga qaratilgan makroprudensial talablarning O'zbekistondagi joriy holati va DTI talabining joriy qilish zaruriyati

O'zbekistonda moliyaviy tizim barqarorligi va qarz oluvchilarning moliyaviy intizomini ta'minlashga qaratilgan qator xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan talablar bosqichma-bosqich joriy etib kelinmoqda.

Xususan, 2019-yildan boshlab qarz beruvchi tomonidan mikroqarzlar ajratilayotganda jismoniy shaxsning **qarz yuki ko'rsatkichi** (DSTI) **50** foizdan oshmasligi talabi kiritildi. Ya'ni, mazkur talab qarz oluvchi oylik daromadining 50 foizidan ko'p qismini kredit to'lovlariga sarflashini cheklaydi. Keyinchalik mazkur talab 2024-yil 1-iyuldan boshlab jismoniy shaxslarga ajratiladigan barcha turdagi kreditlarga (mikroqarzlariga) nisbatan tatbiq etilishi belgilandi hamda 2025-yil 1-yanvarga qadar 60 foiz etib belgilandi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab ushbu me'yor 50 foizga o'zgartirildi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslarga ajratiladigan ipoteka kreditlari uchun kreditning garovga nisbati ko'rsatkichi (LTV) 80% qilib belgilangan bo'lsa, avtokreditlarda bu ko'rsatkich 75% bilan chegaralangan. Bunday talablar kredit oluvchilarning ta'minotsiz yoki haddan tashqari yuqori xatar bilan qarz olishining oldini oladi.

Shunga qaramay, bugungi kunda O'zbekistonda fin-innovatsiyalar va raqamli xizmatlarning rivojlanishi aholiga kredit mahsulotlaridan tez, oson va keng ko'lamda foydalanish imkonini yaratmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda jismoniy shaxslarning **mikroqarz**, **kredit karta** va **overdraft** kabi kredit mahsulotlaridan keng ko'lamda foydalanayotganligi, aholining ortiqcha qarz yuki bo'yicha bir qancha xavotirlarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan birgina **mikroqarzlar** qoldig'i 2023-2025 (avgust) yillar oralig'ida **3,5** baravarga o'sgan sharoitda, respublikamizda o'rtacha oylik ish haqi⁷ **1,5** baravarga oshgan. Bu holat aholining moliyaviy xizmatlardan faol foydalanayotganini ko'rsatishi bilan birga, ortiqcha qarz yuki xavfi ham oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Agar bunday tez sur'atdagi o'sish **aholining daromadlar dinamikasi bilan mutanosib tarzda cheklanmasa**, kelgusida aholining kredit majburiyatlarini bajara olmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa

⁷ 2025-yil yanvar-iyun holatiga olingan

banklar kredit portfeli sifatining yomonlashishiga va moliyaviy tizim barqarorligiga xavf tug'diradi.


DSTI talabi qarz oluvchining oylik to'lov qobiliyatini hisobga olsa-da, ko'p hollarda kreditlarning uzoq muddatga ajratilishi qarz oluvchining **qarz miqdorini uning daromadga nisbatan** keskin oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa iqtisodiy sharoitlar qat'iylashgan sharoitda (*masalan, ishsizlik yoki daromadlarning pasayishi*) jiddiy moliyaviy xatarlarni keltirib chiqarishi mumkinligini va bunday holatda faqatgina DSTI talabining o'zi yetarli bo'lmasligini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda xalqaro tajribada Loan-to-Income (LTI) va Debt-to-Income (DTI) talablari keng qo'llanilmoqda va aholining kredit xatarlarini tartibga solishda anchayin samarali ekanligi ta'kidlanmoqda.

Shundan kelib chiqib, Markaziy bank tomonidan birinchi navbatda LTI holati o'rganildi. Bu orqali qarz oluvchilarning daromadga nisbatan qancha miqdorda qarz olayotganligi, yuqorida ta'kidlangan kreditlar asosan aholining qaysi qatlamlariga va qanday hajmlarda taqsimlanayotganini tahlil qilindi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida kredit olgan 620 ming nafar jismoniy shaxslar tanlab olinib o'rganilganda, kredit rasmiylashtirgan vaqtda ularning qariyb **65** foizdan ko'prog'ining LTI ko'rsatkichi **0-5** birlik nisbat oralig'ida, **25** foizga yaqin qismining LTI ko'rsatkichi **5-10** birlik nisbat oralig'ida shakllangan.


1-rasm: Kredit shartnomalari bo'yicha LTI ko'rsatkichi taqsimlanishi
(mikroqarz, overdraft, kredit karta)



Boshqacha aytganda, LTI talabining **5 birlik nisbatda** joriy qilinishi, shu turdagi kredit mahsulotlarini oluvchilarning taxminan **35** foizga yaqin, 10 birlik nisbatda joriy qilinishi esa kredit oluvchilarning **10** foizdan kam qismiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ya'ni, mazkur talabning joriy etilishi ushbu nisbatlar oralig'dagi kredit oluvchilarning kredit olishini cheklamaydi, faqat o'z daromadiga nisbatan ortiqcha xatarli kreditlashni oldini oladi.

Shuningdek, LTI talabining **8 birlikda** joriy etilgan sharoitda ta'sir doirasidagi kredit oluvchilar asosiy qismi, aniqrog'i 78 foizga yaqin qismi **5 mln** so'mgacha ish haqiga ega jismoniy shaxslardan tashkil topishi aniqlandi. Ta'sir diapazonidagi kredit oluvchilarning yana **20** foiz qismi **5-10 mln** so'm oralig'ida, qolgan **2 foizi** atrofida esa **10 mln** so'mdan ko'proq oylik ish haqiga ega jismoniy shaxslardan iborat.

2-rasm: Kredit shartnomalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining LTI ko'rsatkichi kesimida taqsimlanishi
(mikroqarz, overdraft, kredit karta)



Qolaversa, O'zbekiston bo'yicha amalga oshirilgan empirik hisob-kitob natijalariga ko'ra, LTI ko'rsatkichining 1 nisbat birlikka kamaytirilishi o'rta hisobda kredit oluvchilarning kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik ehtimolini **6,2** foizga kamaytiradi.

LTI talabi kreditning miqdorini qarz oluvchining daromadiga nisbatan cheklaydi va asosan kredit berilish paytidagi bir martalik hajmni baholaydi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qarz oluvchilar bir vaqtning o'zida turli manbalardan bir nechta kredit olishi mumkin va har bir kredit alohida LTI limitiga to'g'ri kelsa-da, ularning umumiy qarz yuki oshib ketish ehtimoli yuqori.

Aksincha, DTI talabi esa qarz oluvchilarning shu turdagi barcha kreditlar bo'yicha qarz summasini uning oylik yoki yillik daromadiga nisbatan tartibga soladi. Boshqacha aytganda, ushbu vosita nafaqat yangi ajratiladigan kreditning miqdorini, balki mavjud kredit majburiyatlarni ham hisobga olib, qarz oluvchining haqiqiy moliyaviy ahvolini to'liq aks ettiradi. DTI, umuman olganda, DSTI talabini to'ldiradi. Agar DSTI qarz to'lovlarining oylik qarz yukini tartibga solsa, DTI qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini va uzoq muddatli qarz yukini belgilaydi.

Ushbu vositalarning birgalikda qo'llanilishi qarz oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlariga mutanosib ravishda kredit olishini ta'minlab, aholining ortiqcha qarzдорlik xavfini cheklaydi hamda bank tizimining barqarorligini mustahkamlaydi. Bu orqali kredit portfeli sifati yaxshilanib, moliyaviy resurslar samarali yo'naltiriladi va qarz oluvchilar o'z moliyaviy majburiyatlarini daromadlari doirasida rejalashtirishga o'tadi, bu esa uzoq muddatda kredit bozorining sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi.